

# BULOQBOSHI TUMANI SANOAT TARMOQLARI IQTISODIY KO'RSATKICHLARI VA HUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNI QO'LLAB QUVVATLASH CHORA TADBIRLARI

<sup>1</sup>Sarikulov Mirkomil Olimovich, <sup>2</sup>Rahmonova Odinahon Obidin qizi,

<sup>1</sup>Andijon davlat pedagogika instituti Tabiiy fanlar fakulteti o'qituvchisi, <sup>2</sup>Andijon davlat Pedagogika instituti 1-bosqich talabasi, Andijon shahar Do'stlik ko'chasi 4-uy

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Buloqboshi tumanining joylashgan geografik o'rniga umumiy ta'rif, sanoat tarmoqlari tasnifi va makroiqtisodiy ko'rsatkichlari, tashqi iqtisodiy aloqalar, davlat va nodavlat sektori ishlab chiqarishi qiyosiy tahlil qilingan. Bundan tashqari, tumanda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash va uni rag'batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirib borilishi, o'z navbatida kichik biznes subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari va xalq iste'moli tovarlari ishlab chiqarish haqida ham fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar.** Investitsiya, hususiy tadbirkorlik, fizik hajm indeksi, kichik biznes, tovar aylanmasi, chakana savdo, mehnat resurslari

**Abstract:** This article compares the general characteristics of the geographical location of the Bulakbashi district, the classification of industries and macro-economic indicators, foreign economic relations, production of the state and non-state sector, the implementation of measures aimed at supporting and stimulating it, in turn, was considered also the production of industrial products and consumer goods by small businesses.


**Keywords.** Investments, private entrepreneurship, physical volume index, small business, trade turnover, retail trade, labor resources

**Kirish.** Buloqboshi tumani Andijon viloyatning janubiy qismida joylashgan. Buloqboshi tumani shimol va sharqda Andijon va Xo'jaobod tumanlari, g'arbda Asaka va Marxamat tumanlari, janub va janubiy-g'arbda Qirg'iziston Respublikasining O'sh viloyati Aravon tumani bilan chegaradosh hisoblanadi.

Tumanning iqlimi keskin kontinental, quruq. Tog' tizmalari Farg'ona vodiysiga sovuq havoning kirib kelishini to'sib turganligi bois, qishda ob-havo bir muncha mo'tadil bo'ladi. Yozi issiq, iyulning o'rtacha harorati 27,3<sup>0</sup> C, qishi nisbatan sovuq, yanvarning o'rtacha harorati -3<sup>0</sup> C. Vegetatsiya davri 217 kun, yillik o'rtacha yog'in miqdori 200-250 mmni tashkil etadi.

**Asosiy qism.** O'tkazilgan tadqiqotlarga asosan 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida Buloqboshi tumanida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari tomonidan 436,8 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 105,0 foizni tashkil etdi. Sanoat ishlab chiqarish hajmi va fizik hajm indeksi o'rganilganda quyidagi ko'rsatkichlar aniqlandi.

## SANOAT MAHSULOTI HAJMI VA FIZIK HAJM INDEKSI




### SANOAT MAHSULOTI ISHLAB CHIQRILISHI *(2023-yil yanvar-dekabr)*

	Sanoat mahsuloti hajmi		tarmoq korxonalari		hududiy korxonalar	
	Hajm, mlrd. soʻm	oʻsish surʼati % da	Hajm, mlrd. soʻm	ulushi, % da	Hajm, mlrd. soʻm	ulushi, % da
<b>Andijon viloyati</b>	<b>73 579,3</b>	<b>107,3</b>	<b>55 676,4</b>	<b>75,7</b>	<b>17 902,8</b>	<b>24,3</b>
Buloqbooshi tumani	436,8	105,0	0,5	0,1	436,3	99,9

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida tumanda 303,2 mlrd. soʻmlik isteʼmol tovarlari ishlab chiqarilib, oʻsish surʼati oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 100,1 % ni tashkil etdi. Jami sanoatdagi ulushi 69,4 % ni (2022-yilning yanvar-dekabr oylarida 321,4 mlrd. soʻmlik isteʼmol tovarlari ishlab chiqarilgan, oʻsish surʼati 101,8 % ni) tashkil etgan.

### Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari




Tumanda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash va uni rag'batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirib borilishi, o'z navbatida kichik biznes subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari va xalq iste'moli tovarlari ishlab chiqarish hajmining doimiy o'sib borishiga sabab bo'lmoqda.

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi 436,8 mlrd. so'm bo'lib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 105,0 % ni tashkil etgan. 2023-yil yanvar-dekabr oylarida tuman bo'yicha aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2 883,3 ming so'mni va sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 102,9 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga xalq iste'moli tovarlarini ishlab chiqarish hajmi 2 001,3 ming so'mni va o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 98,1 % ni tashkil etdi.

**Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari va iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi, (ming so'm)**



Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, Buloqboshi tumanida 2024-yilning 1-yanvar holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) 1 610 tani tashkil qilib, shundan faoliyat ko'rsatayotganlari soni 937 tani yoki jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning 58,2 foizini tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi sanoatda 367 ta (22,8 foizi), savdo 462 ta (28,7 foizi), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 126 ta (7,8 foizi) va qurilish 103 ta (6,4 foizi) sohalariga to'g'ri keladi.


#### **Buloqboshi tumanida 2024-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra ro'yxatga olingan hamda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha**

	<i>Ro'yxatdan o'tgan</i>		<i>Faoliyat ko'rsatayotgan</i>	
	<i>birlik</i>	<i>yakunga nisbatan foizda</i>	<i>birlik</i>	<i>yakunga nisbatan foizda</i>
<b>Jami</b>	<b>1 610</b>	<b>100,0</b>	<b>937</b>	<b>100,0</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	126	7,8	47	5,0
<b>Sanoat</b>	367	22,8	206	22,0
<b>Qurilish</b>	103	6,4	63	6,7
<b>Savdo</b>	462	28,7	242	25,8
<b>tashish va saqlash</b>	51	3,2	26	2,8


	<i>Ro'yxatdan o'tgan</i>		<i>Faoliyat ko'rsatayotgan</i>	
	<i>birlik</i>	<i>yakunga nisbatan foizda</i>	<i>birlik</i>	<i>yakunga nisbatan foizda</i>
<b>yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar</b>	72	4,5	34	3,6
<b>axborot va aloqa</b>	34	2,1	22	2,4
<b>sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish</b>	48	3,0	35	3,7

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 705,1 mlrd. so'mni yoki 2022-yilning shu davriga nisbatan 105,2 foizni tashkil qildi. Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasida (umumiy ovqatlanishni qo'shgan holda) 9,4 mlrd. so'mni tashkil qiladi va umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 85,5 foizni tashkil qildi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 695,7 mlrd. so'mga etdi, umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa 105,5 foizni tashkil qildi. Umumiy tovar aylanmasi hajmining 106,2 mlrd. so'mi uyushmagan savdo hisobiga to'g'ri keldi. Ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasi hajmidagi ulushi 93,7 foizga teng bo'ldi.


#### **Chakana savdo tovar aylanmasi (ovqatlanishni qo'shgan holda) tarkibi**



#### **Buloqboshi tumanining ichki va tashqi savdo ko'rsatkichlarining Andijon viloyatida tutgan ulushi, % da**



**Buloqboshi tumanida tashqi savdoda eksport va importni ulushi, foizda**



**Xulosa.** Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Buloqboshi tumanida sanoat tarmoqlari iqtisodiy ko`rsatkichlari va hususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo`yicha qator ijobiy ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi qariyb 104 % ga oshganini ko`rishimiz mumkin. 2024-yil 1-yanvar holatiga ko`ra ro`yxatga olingan kichik biznes subyektlari soni 1 367 tani tashkil etib, shundan 721 tasi faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, 2023-yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 133 tani tashkil etadi. O`z navbatida faoliyatini tugatgan kichik biznes subyektlari soni 37 tani tashkil etmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. *N.Xolmatov, N.Imomova.* «Makro va mikroiqtisodiyot» fanidan o'quv qo'llanma. —T.: «Tafakkur avlodi», 2020. - 268-b.
2. *Sarikulov M.O., Saidto'rayeva Kh.I.* Logistics Complexes Specialized In Intensive Cultivation, Processing, Drying And Sale Of Fruit And Vegetable Products In Khojhaabad District (As An Example Of Navigul Logistics Center) "Экономика и социум" №2(105) 2023
3. *Buloqboshi tumani pasporti.* 203 yil
4. *Sarikulov Mirkomil Olimovich, Olimov Oybek Baxromjon o'g'li,* SWOT ANALYSIS OF PAKHTAOBOD DISTRICT, MAIN MACROECONOMIC INDICATORS AND AGRICULTURAL PRODUCTION VOLUME ANALYSIS. NOVATEUR PUBLICATIONS JournalNX- A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal VOLUME 9, ISSUE 2, Feb. -2023
5. *Makroiqtisodiyot.* G'E.Zaxidov, M.T.Asqarova, Z.A. Djumayev, L.F.Amirov, H.A. Hakimov. -. T.: 2019. - 290 bet.